

**Baxtiyor Mengliyev
Bashorat Bahriddinova**

**O‘ZBEK TILINING
SO‘Z TARKIBI
O‘QUV LUG‘ATI**

Maktab o‘quvchilari uchun

Qarshi davlat universiteti
O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi
Qashqadaryo viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti

Baxtiyor Mengliyev
Bashorat Bahriddinova

O'ZBEK TILINING SO'Z TARKIBI O'QUV LUG'ATI

(Maktab o'quvchilari uchun)

Toshkent
2006

Lugʻat, avvalo, oʻrta maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. U, shuningdek, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari, filolog talabalar va qolaversa, oʻzbek tili bilan qiziquvchi kehg oʻquvchilar ommasi uchun ham foydadan xoli emas.

Masʼul muharrir
Hamid Neʼmatov
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar
Tursunali Jumayev
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sh.Qilichev
Qarshi shahridagi 1-oʻrta maktabning oily toifali ona tili va adabiyot oʻqituvchisi

ALIFBO

ABDEFGHIKMNOPQRSTUVWXYZOʻG`SHCHNG

SO‘ZBOSHI

Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy taffakkur sohibi bo‘lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki bilan omon chiqib oladigan mustaqil fikrli, shu bilan birga, shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab qiladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog‘liqdir. Demak, ijodiy va mustaqil taffakkurli shaxs tarbiyasida ona tili va uning ta‘limini tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos.

Ma‘lumki, o‘rta maktab ona tili ta‘limining konseptual asoslarida uining zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta‘kidlanadi: darslik va lug‘atlar. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning har bir bo‘g‘ini uchun (bog‘chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug‘atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o‘quv lug‘atlari mavjud bo‘lgani holda o‘zbek maktablari uchun bitta «Imlo lug‘ati» bor, xolos. Maktablar uchun izohli lug‘at, ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, darajalanish lug‘ati, eskirgan so‘zlar lug‘ati, shevaga xos so‘zlar lug‘ati, iboralar lug‘ati, so‘zlarning birikuvchanlik lug‘ati, uyadosh so‘zlar lug‘ati, shakldosh so‘zlar lug‘ati, so‘z tarkibi lug‘ati, talaffuzdosh so‘zlar lug‘ati, shuningdek, har bir fan bo‘yicha alohida terminologik lug‘atlar va qomuslar yaratish dolzarb vazifadir.

O‘quvchilar uchun zarur lug‘atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi. Bu o‘rta ta‘lim bo‘g‘ini uchun mavzuviy o‘quv lug‘atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.

Qarshi davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida professor-o‘qituvchilari Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda maktablar uchun mavzuviy o‘quv lug‘atlarini ishlab chiqishdek sharaflı vazifani o‘z zimmlariga oldilar va buning natijasi o‘laroq kelajagimiz faxri bo‘lgan maktab o‘quvchilari uchun shu tipdagi o‘quv lug‘atlari turkumi yaratildi.

O‘quv lug‘atlari tajriba sifatida birinchi marta nashr qilinayotganligi uchun kitobxonlar muhokamasiga havola etiladi. Lug‘atlar haqidagi fikrlaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Manzil: Qarshi shahri Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Qarshi davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrası. Тел: (8-375) 25-77-63; 23-48-55). Faks: (8-375) 221-13-12. E-mail: kasu_info@edu.uz.

B.R.Mengliyev
filologiya fanlari doktori, professor

TUZUVCHILARDAN

Qo‘llanma o‘zbek tilining so‘z tarkibi bo‘yicha birinchi o‘quv lug‘ati bo‘lib, unda so‘zlar yotiq chiziqlar bilan o‘zak va qo‘shimchalarga bo‘lingan holda alifbo tartibida berildi:

aya/nch/li
ayb/dor/lik

ayb/dor/larcha
ayb/la/n/uvchi

Lug‘atni tuzishda 1977 yilda nashr qilingan «O‘zbek tili morfem lug‘ati»ga (A.G‘ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo‘ng‘urov) tayanildi. Bu lug‘at yaratilganidan hozirga qadar jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlar yangi lug‘at tuzish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu sababli «O‘zbek tili so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati»ni tuzishda «O‘zbek tili morfem lug‘ati»ni yaratishda tayanilgan tamoyillarga to‘liq asoslanilmadi. O‘quv lug‘ati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

1. Ma‘lumki, jahon tilshunosligida morfemaga xos uch asosiy belgi e‘tiborga olinadi:

1. Ma‘noli qismlarga ajralmaslik.
2. Mustaqil qo‘llana olmaslik.
3. So‘z bag‘rida yashash.

O‘zbek tilining o‘ziga xos agglyutinatib tabiatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, tilimizda morfema deganda faqat qo‘shimchalarni tushunish lozim. O‘zak morfema emas, balki u leksemdir. Nutq tarkibida unga so‘z sifatida qaraladi. Leksema leksikologiyaning, so‘zshakl morfologiyaning tadqiq manbai hisoblanadi.. O‘zbek tilida o‘zakni morfema deb tarqin qilish rus tili grammatik me‘yorlariga suyanish oqibatidir. Ichki fleksiyaga asoslangan rus tilida o‘zakka morfema deb qarash o‘rinli. Chunki flektiv tillarda o‘zak morfemaning jahon tilshunosligida e‘tirof etilgan ilmiy ta‘rifiga mos tushadi. Shu sababli ushbu lug‘atda qo‘shimchasiz so‘zlar, morfem tahlilda o‘quvchilarda muammo yuzaga keltirmaydigan so‘zning turli lug‘aviy shakllari, yasovchi morfema olmagan qo‘shma so‘zlar kiritilmadi. Bunday so‘zlar, odatda, imlo lug‘atlarida beriladi: *kezmok, keltir, kelma, yigirish, o‘nta, ikkitadan, kitobcha, yemoq, kiyintirmok, yozdirilmok, bo‘yra, o‘rinbosar, ishlab chiqarish, kungaboqar, tomorqa, birpas*. Istisho tariqasida qo‘shma, takroriy va juft so‘zlar tarkibida qo‘shimcha bo‘lganda o‘zaklar ham ajratildi: asal/ari/chi/lik, pir/pir/a/k.

2. O'zakdosh so'zlarning to'liq tarkibi keltirildi: *bosh-bosh/la-bosh/lo/vchi-bosh/lo/vchi/lik* tarzida to'rtta shaklda emas, balki *bosh/lo/vchi/lik* tarzida ma'noli qismlarga ajratib berildi.

3. Avvalgi lug'atdan farqli o'laroq, o'zlashma so'zlarning yasalishi o'zbek tilida yuz bermaganlari (*artistka, arxeologiya, aspirantura, obaki, morfemik, morfema, obida, artillerist, jinoyat, tabiiy, vahshiy, vegetativ, korjoma*) lug'atga kiritilmadi.

Nutqimizda rus, arab, fors, shuningdek, yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar nihoyatda ko'p bo'lib, ularning ayrimlari o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajralish imkoniyatiga ega bo'lsa (*shaxs-iy-at, ma'mur-iyat, ma'naviy-at, fikr-an, shakl-an*), aksariyati flektiv tabiatini to'la saqlagan (*siyosat, falsafiy, artillerist, kooperativ, mifologiya, modifikatsiya, mexanizm, mexanik, mexanist, mexanizatsiya*).

Aslida yasama holicha kirib kelgan o'zlashma so'zlar tub so'z sifatida qabul qilinishi, tarkibidan morfema ajratilmasligi lozim. Ammo ularning ayrimlari tilimizda shunchalik keng qo'llanadiki, maktab o'quvchilari ularni o'z yoki o'zlashma ekanligini ilg'ay olmaydilar. Shu bois o'zlashma so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini ajratish imkoni borlari, o'zbekcha qo'shimcha olib yasalganlari lug'atda aks etdi: *medal-li, ma'mur-iy-at-chi-lik, ma'lum-ot, maskirovka-siz, ideal-lash/tir/ish, aspirant-lik, adab-iy-ot, jism-an, moliya-viy, madaniy-at, mas'ul-iyat*).

4. Bugungi kunda soddalashish, tublashish, yaxlitlashish kasb etgan va bu jarayonni boshidan kechirayotgan o'zbekcha so'zlar ham lug'atdan o'rin olmadi: *qizg'ish, qishloq, kungay, kunduzi, kurtak, yo'rg'a, yiring, qopqoq* ..

5. Tarkibida egalik, kelishik shakllari yaxlitlangan ayrim ravishlar, modal so'zlar ma'noli qismlarga ajralmaganligi bois lug'atdan joy olmadi: *kunda, birga, birdan, yaqinda, kechasi, kunduzi, to'satdan, zimdan, qo'qqisdan, haqiqatdan, chamasi, aftidan, afsuski*...

6. Ayni paytda murakkablashgan morfemalar bitta qo'shimcha sifatida olindi: *afsus/lan/moq, ulfat/chilik, yog'in/garchilik, faol/lash/moq, yoppa/siga, qishloq/chasiga, metr/lab, hunarmand/chilik*...

7. Ijtimoiy, siyosiy nuqtai nazardan iste'moldan chiqqan so'zlar ham lug'atga kiritilmadi: *kolxozlash/tir/ish, pionerka*.

8. Qo'shimcha qo'shilishidagi orttirilgan morfemalar alohida ajratilib ketildi: *buyur-t-ma-chi*...

Lug'atda, asosan, maktab o'quvchilariga so'z tarkibini ajratishda qiyinchilik tug'diradigan, nutqimizda ishlatiladigan so'zshakllar qamrab olindi.

Morfema haqida ma'lumot. Ma'noli qismlarga ajralmaydigan, so'zning nomustaqil tarkibiy qismiga morfema deyiladi. Morfemalar funksional-semantik jihatdan ikki guruhga bo'linadi: so'z yasovchi morfemalar, grammatik morfemalar.

So'z yasovchi morfemalar yangi so'z yasash uchun xizmat qiladi. Yangi so'z yangi leksik va grammatik ma'nolarga ega bo'ladi, atash ma'nosi yangilanadi: *ish-siz-lik, bil-im-don-lik, o'yn-a, taro-q, pas-ay, o'r-oq-chi-lik*. So'z yasovchi morfemalar so'zga bittadan 3-4 tagacha qo'shilishi mumkin. Ko'p hollarda so'z yasovchi morfema qo'shilganda tovush moslashishi, tovush tushishi, orttirilishi va

almashinishi bilan bog'liq fonetik o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. So'z yasovchi morfemalar quyidagi tur so'zlardan yangi so'z yasaydi:

Sodda tub so'zdan – *ishla, yoshlik, aqlli...*

Sodda yasama so'zdan – *ishsizlik, bilimdon, yaltiroq...*

Qo'shma so'zdan – *ishyoqmaslik, asalarichi, o'rinbosarlik...*

Juft so'zdan – *sabr-toqatli, sihat-salomatlik, qo'ni-qo'shnichilik*

Takroriy so'zdan – *sharshara, bizbizak, dag'dag'a*

Grammatik morfemalar asosiy xususiyatlariga ko'ra uchga ajraladi:

1. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar leksemalarning lug'aviy ma'nosini nutq talabiga moslaydigan, so'zning atash ma'nosiga muayyanlash/tir/ish, toraytirish, aniqlash/tir/ish darajasida ta'sir etadigan morfemalardir. Otlardagi kichraytirish, son, shaxsiy munosabat shakllari; fe'llardagi nisbat, bo'lishsizlik, harakatning kuchli yoki kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi harakat tarzining sintetik shakllari; sonlarning ma'no turlarini hosil qiluvchilar, sifatning daraja shakllarini yasovchilar lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar hisoblanadi.

2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar leksemalarning muayyan gap bo'lagi bo'lib kelishga xoslaydigan va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaragan morfemalardir. Kelishik, egalik, kesimlik shakllari bu guruhni tashkil etadi.

3. Lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar leksemalarning ham lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ham ularning sintaktik vazifalarini belgilaydi. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari ikkiyoqlama tabiati bilan bu guruhdan o'rin egallaydi.

So'zning morfem tarkibini ajratish. Har bir so'zning morfemalarga ajratilishi undagi qismlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zaro munosabatga kirisha olish xususiyatiga asoslanadi. So'zning tarkibini ajratishda, avvalo o'zak ajratilib, uning lug'aviy ma'nosi aniqlanadi. O'zakka qaysi qo'shimcha turi qo'shilmasin, u har doim o'zakdagi ma'no bilan aloqador bo'ladi va yangi so'z yasalganda ham o'zakning ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan, *suvoqchilik* so'zining tarkibi *suva+q+chi+lik*. Ushbu kasb-hunar bilan bog'liq soha otining o'zakdagi suvash harakati bilan aloqasi uzilmagan.

So'z tarkibidagi o'zgarishlar. Davrlar o'tishi bilan so'zlarda ma'no taraqqiyoti yuz berib, yasalma o'z atash ma'nosidan uzoqlashishi, kuchli tovush o'zgarishiga uchrashi yoki ayrim morfologik shakllar o'z funksiyasini yo'qotib, «qotib qolishi» mumkin. Agar o'zakdagi ma'no bilan yasalma ma'nosi o'rtasida aloqa uzilsa, morfemalar o'zak tarkibida soddalanishga uchragan bo'lsa, bunday so'zlar ma'noli qismlarga ajralmaydi, unga yaxlit so'z sifatida qaraladi. So'z yasovchi morfemalarda ham, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi morfemalarda ham bu holatni kuzatish mumkin: *qishloq* (aslida qishlaydigan joy, bugungi kunda doimiy yashash joyi, ya'ni qish bilan aloqa uzilgan), *ovloq* (aslida ovlaydigan joy, bugungi kunda pana, xoli joy), *qovurg'a* (qopurg'a – yurak, o'pka kabi a'zolari qoplab turadigan organ), *qopqoq, yaproq, bo'yin, yurak, ichak, uyg'on, uyg'ot, uyg'oq, yumshamoq, o'xshamoq, qurshamoq, lcha* (aslida olu-cha), *qizilcha* (1. kichik qizil toshmal kasallik. 2. qizartirib qovurilgan go'shtli taom), *ko'kcha*

(qovun navi), *Onaxon, Olmaxon, Qizlarxon, Beklar* (mahallasi), *qizg'ish, sarg'ish* (aslida qizil-ish, sariq-ish), *ko'rish* (salomlash), *kelish* (bir qarorga kelmoq), *tortinmoq, cho'qinmoq, botinmoq, kechirmoq, surishtir, cho'milmoq, kelin, kechasi, kunduzi, tunlari, chamasi, mazmuni, qisqasi, yaxshisi, rosti, birdan, birga, birvarakayiga, kunda* va h.

Ko'p hollarda so'zning tarkibini aniqlashda so'zdagi fonetik o'zgarishlar qiyinchilik tug'diradi. Tillarni kuzatishdan ma'lumki, morfologik ko'rsatkichlar yo mustaqil ma'noli leksemalardan, yoki har xil qo'shimchalarning o'zaro birikib yangi qo'shimcha hosil qilish usulidan shakllanadi. Ko'pgina so'zlar qo'shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin: *gapir* (*gap ur*), *tupir* (*tuf ur*), *supur* (*suv ur*), *berkit* (*berk et*), *to'lat* (*to'la et*), *bo'shat* (*bo'sh et*), *yo'qot* (*yo'q et*), *yo'qol* (*yo'q o'l*), *aytoladi* (*ayta oladi*), *ketaver* (*keta ber*), *ketvormoq* (*ketib yubormoq*), *boryapti* (*borib yotibdi*).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zga qo'shimcha qo'shilganda o'zakda fonetik o'zgarishlarning quyidagi ko'rinishlari kuzatiladi.

Tovush tushishi: *sariq-ay / sarg'ay, past-ay / pasay, og'iz-aki / og'zaki, o'yin-a / o'yna, o'rin-ash / o'rnash, ayir-im / ayrim, ayir-il / ayiril, buyur-uq / buyruq; ikki-ov / ikkov, olti-ala / oltala, yetti-ovlon / yettovlon; men-ning / mening, sen-ni / sening; burun-i / burni, shahar-im / shahrim, o'g'il-ing / o'g'ling.*

Tovush orttirilishi: *isi-q / issiq, qot-iq / qattiq, tib-iy / tibbiy, his-iy / hissiy, shu-cha / shuncha, bu-day / bunday; u-ga / unga, shu-da / shunda, bu-dan / bundan, haq-i / haqqi, parvo-i / parvoyi, obro'-ing / obro'ying.*

Tovush almashishi:

a ~ o: tara-q / taroq, so'ra-q, / so'roq, qiyna-v / qiynov, so'ra-v / so'rov;

o ~ a: son-a / sana, ong-la / angla, uosh-a / uasha, ot-a / ata;

i ~ u: tinti-v / tintuv, o'qi-v / o'quv, sovi-q / sovuq, quri-q / quruq;

q ~ g': qishloq-i / qishlog'i, yutuq-im / yutug'im, buyruq-i / buyrug'i;

k ~ g: yurak-i / yuragi, eshik-im / eshigim, tilak-ing / tilaging;

So'z tarkibi lug'ati o'rni bilan imlo lug'ati vazifasini ham o'tay oladi. Chunki so'zlarning tarkibiy tuzilishi haqida qat'iy bilimga ega bo'lish, o'zakka turli vazifadagi morfemalar qo'shilishi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarni anglab olish, shubhasiz, yozuvdagi har xilliklarni bir shaklga keltirishga yordam beradi.

Peterburg lingvistik maktabining yirik namoyandasi I.A.Boduen de Kurtene A.I.Vachinyaevning «Imlo lug'ati»ni tahlil qila turib, so'zlarni morfemalarga ajratishning imlo uchun ahamiyati juda katta ekanligini alohida ta'kidlagan edi¹.

O'zakni ajrata bilish, so'z tarkibidagi tovush o'zgarishlarini fahmlash so'zni to'g'ri yozishga imkon beradi. Shu sababli lug'atda ayrim so'zlarning etimologiyasi, ya'ni kelib shiqishiga ishora qilib ketishni lozim topdik: anglashilmovchilik (*ong-la-sh-il-ma-vchilik*), sanoqsiz (*son-a-q-siz*), atoqli (*ot-a-q-li*) kabi.

¹ И.А.Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию, том II, М., 1963, С-234-235.

A

abad/iy/lash/moq
abad/iy/lash/tir/ish
abad/iy/lik
abad/iy/at
ablah/larcha
ablah/lik
ablah/ona
abstrakt/lash/tir/ish
astrakt/lik
abxaziya/lik
avval/gi
avj/lan/moq
avj/li
avliyo/namo
avom/lik
avro/q/chi (avra/q/chi)
avtomat/lash/tir/ish
agent/lik
adab/iy/ot/chi
adab/iy/ot/shunos/lik
adab/li
adab/siz
adil/lik
adir/lik
adovat/li
adovat/siz
adolat/li
adolat/parvar
adolat/siz/lik
aya/nch/li
ayb/dor/lik
ayb/dor/larcha
ayb/la/n/uvchi
ayb/lo/v/chi (ayb/la/v)
ayb/siz/lik
ayyor/larcha
ayir/ma/chi/lik
ayiq/simon
aylan/a
aylan/ma/choq
ayo/v/siz (aya/v)

ayo/v/chan (aya/v)
ayol/mand
ayr/il/iq (ayir/il)
ayr/im (ayir/im)
ayr/i/l/uv/chi (ayir/i/l)
ayr/i/l/uv/chan (ayir/i/l)
ayt/arli
ajab/lan/moq
ajab/lan/arli
ajab/sin/moq
ajral/ish
ajr/im
aza/dor/lik
azal/iy
azob/lan/moq
azon/lab
azot/la/moq
ak/ildoq
ak/illa/moq
aksar/iyat
aks/lan/moq
alan/ga/lan/moq
alah/la/moq
alah/sira/moq
alda/m/chi/lik
aldo/q/chi/lik
(alda/q/chi)
aloqa/dor/lik
aloqa/li
aloqa/siz
amal/dor/lik
amal/iy/ot/chi
amal/la/moq
amal/parast/lik
ang/illa/moq
ang/la/sh/il/mo/vchilik
(ong/la/sh/il/ma/vchilik
)
ang/la/sh/il/mas
(ong/la)
andava/la/moq
andaza/la/moq

andisha/siz/lik
aniq/lash/tir/ish
aniq/lik
aniq/lo/vchi
(aniq/la/vchi)
aniq/siz/lik
anor/zor
an'ana/viy/lik
arab/i
arava/kash/lik
araz/la/moq
araz/chi/lik
ara/lash/ma
aroq/xo'r/lik
ardoq/la/moq
arzi/mas
arzi/gulik
arzi/rli
arzon/lash/moq
arzon/chilik
ariza/boz/lik
ar/illa/moq
arra/kash/lik
archa/zor
arqon/la/moq
asab/iy/lash/moq
asab/iy/lik
asal/ari/chi/lik
asar/siz
asbob/soz/lik
asir/lik
askiya/boz/lik
asl/iy/at
asos/an
asos/iy
asos/la/moq
asos/li
asos/siz/lik
asra/ndi
asr/iy
astar/li
astar/siz

astar/lik
 asfalt/la/moq
 at/o/v (ot/a/v)
 at/o/q/li (ot/a/q/li)
 afsona/viy
 afsona/vor
 afsun/gar
 afsun/kor
 afsun/la/moq
 afsun/chi
 afsus/lan/moq
 afsus/li
 axloq/iy
 axloq/li/lik
 axloq/siz
 axloq/siz/lik
 achin/arli
 achi/t/qi
 achom/la/moq
 achchi/q (achi/q)
 achchi/q/la/moq
 (achi/q)
 ashula/chi/lik
 a'lo/chi/lik
 aqida/parast/lik
 aqida/chilik
 aql/iy
 aql/li/lik
 aql/siz/lik
 ahamiyat/li/lik
 ahamiyat/siz/lik

B

ba/ayni
 ba/vosita
 ba/davlat/lik
 bad/axloq/lik
 bad/baxt/lik
 bad/baxt/ona
 bad/bashara
 badbin/lik
 badburush/lik
 bad/bo'y/lik
 bad/gumon

bad/jahl/lik
 badiiy/at
 badiiy/ot
 badiiy/lik
 bad/mast/lik
 bad/muomala
 bad/nafs/lik
 bad/nom
 bad/fe'l/lik
 bad/xat
 bad/xulq
 bad/qiliq
 bad/qovoq/lik
 bad/hazm/lik
 baybay/la/moq
 bayram/chilik
 bayroq/dor
 baland/la/moq
 baland/lik
 baliq/chi/lik
 ba/maslahat
 ba/ma'ni/lik
 baravar/lash/moq
 baraka/siz
 bar/vaqt
 barg/la/moq
 bar/dosh/li
 bar/dosh/siz
 bar/qaror/lik
 ba/xabar/lik
 bachkana/lash/moq
 bashar/iy/at
 baqir/iq
 baqir/la/moq
 baqir/oq/lik
 ba/quvvat/lan/moq
 bag'illa/moq
 bag'ir/la/moq
 baho/la/moq
 bahona/chi
 bahor/i
 baho/siz
 bahra/lan/moq
 bahra/mand/lik
 bahs/lash/moq

ba/huzur/lik
 be/adab/lik
 be/adab/chilik
 be/adad
 be/aziyat
 be/ayb
 be/amr
 be/andoza/lik
 be/andisha/lik
 be/armon
 be/aql/lik
 be/baraka
 be/baqa
 be/baho/lik
 be/bahra/lik
 be/bosh/lik
 be/vaj
 beva/lik
 be/vasiqa
 be/vatan
 be/vafo/lik
 be/vaqt/lik
 begona/lash/moq
 begona/lik
 begona/sira/moq
 be/gumon/lik
 be/gunoh/lik
 be/davo/lik
 beda/zor
 bedana/boz/lik
 be/darak
 be/darvoza
 be/darmon/lik
 beda/furush/lik
 beda/chilik
 bedod/lik
 bedor/lik
 bejama/dor
 beza/k/dor
 beza/k/la/moq
 beza/k/li
 bezbet/lash/moq
 be/ziyon
 bezovta/lan/moq
 bezovta/lik

be/or/lik
 be/ibo
 be/idrok
 be/ijozat
 be/iz
 be/illat
 be/iltifot
 be/imon
 be/imtiyoz
 be/intizom
 be/ixtiyor
 be/ish
 be/ishkal
 be/ishtiboh
 be/iqbol
 bekik/lik
 bekin/machiq
 bekor/chi/lik
 be/lazzat
 belgi/la/moq
 belgi/lo/vchi
 (belgi/la/vchi)
 belgi/siz
 bel/lash/moq
 bemador/lik
 bemaza/garchilik
 be/maslahat
 be/ma'ni/garchilik
 be/mahal
 bemor/lik
 be/mubolag'a
 be/nomus/lik
 be/nuqson/lik
 be/omon/lik
 be/or/lik
 be/orom
 be/ot
 be/parvo/lik
 be/poyon/lik
 be/pul
 be/rahm/lik
 ber/il/uv/chan/lik
 berk/ik
 be/ruxsat
 be/sabab

be/sabr/lik
 be/saranjom/lik
 be/sarishta/lik
 be/soqol
 be/so'ro/q
 be/tajriba
 be/tayin/lik
 be/takalluf/lik
 be/tamiz/lik
 be/tafariq/lik
 be/tartib/lik
 be/tahlila
 be/tergo/v (be/terga/v)
 be/tin/im
 bet/la/moq
 be/tob/lik
 beton/la/moq
 be/tob/lan/moq
 be/toqat/lan/moq
 be/toqat/lik
 bet/siz/lik
 be/tutun
 be/to'xto/v
 be/farzand/lik
 be/farosat/lik
 be/farq/lik
 be/fahm/lik
 be/fursat
 be/xabar/lik
 be/xavotir/lik
 be/xatar/lik
 be/chiq/im
 be/chora/parvar
 be/chora/chilik
 be/shak
 be/sharm/lik
 be/shafqat/lik
 beshburchak/li
 be/shikast
 be/e'tibor
 be/yuz
 be/yaro/q (be/yara/q)
 be/o'lcho/v
 (be/o'lcha/v)

be/o'xsho/v
 (be/o'xsha/v)
 be/qaror/lik
 be/qiyos
 be/quvvat/lik
 be/g'ayrat
 be/g'alva
 be/g'am/lik
 be/g'araz/lik
 be/g'ubor/lik
 be/had
 be/hayo/lik
 be/halovat
 be/hafsala/lik
 behbeh/la/moq
 be/hikmat
 be/hisob
 be/hol
 be/hud
 be/huzur
 be/hujjat
 be/hush/lan/moq
 be/hush/lik
 bidir/la/moq
 bid'at/chi
 bij/ir/la/moq
 bij/ildoq
 bizbiz/ak
 bil/armon/lik
 bil/ag'on/lik
 bil/gich
 bil/dir/uvchi
 bil/im/don/lik
 bil/im/li
 bil/im/siz/lik
 bil/mas
 bilch/illa/moq
 bilq/ildoq
 bilq/illa/ma
 bino/kor/lik
 birga/lash/moq
 bir/ik/moq
 bir/k/it/moq (bir/ik/it)
 bir/lamchi
 bir/lash/ma

bir/lik
 birodar/larcha
 birodar/lash/moq
 bit/ik
 bit/im
 bich/im
 bich/im/siz/lik
 bich/iq/chi/lik
 biq/ir/la/moq
 big‘/ir/la/moq
 bo/adab/lik
 bo/aql
 bodom/simon
 bodom/zor
 bodro/q/chi (bodra/q)
 bozor/bop
 bozor/lik
 boy/i/moq
 boy/lik
 bola/la/moq
 bola/larcha
 bola/lik
 bola/li
 bola/siz/lik
 bolta/la/moq
 bolg‘a/la/moq
 bor/liq
 bor/lik
 bos/im
 bos/iq
 bos/ma
 bos/ma/chi/lik
 bos/tir/ma
 bos/qin/chi/lik
 bos/qich/li
 botir/larcha
 bot/iq
 bot/qoq/lan/moq
 bot/qoq/lik
 bo/umid
 bo/xabar/lik
 bosh/la/moq
 bosh/lan/ma
 bosh/lan/g‘ich
 bosh/liq

bosh/lo/v/chi (bosh/la)
 bosh/oq
 bosh/siz
 bosh/chi/lik
 bosh/qar/ma
 bosh/qar/uv
 boya/gi
 boqiy/lik
 bog‘/bon/lik
 bog‘/dor/chilik
 bog‘/ich
 bog‘/la/m
 bog‘/la/ma
 bog‘/li
 bog‘/liq
 bog‘/lo/v/chi
 (bog‘/la/v)
 bron/la/moq
 bugun/gi
 buz/uq/i
 buyr/uq/boz/lik
 buk/ik
 buk/la/m
 buk/la/ma
 bulut/lan/moq
 bulut/li
 bulg‘a/la/moq
 bur/a/ma
 bur/a/m
 burda/la/moq
 bur/il/ma/li
 bur/ush/qoq
 burun/gi
 bur/g‘i/la/moq
 buto/q/la/moq
 butun/lay
 buyuk/lik
 buyur/t/ma/chi
 bug‘doy/zor
 bug‘/la/moq
 bug‘/la/ma
 bo‘yo/q/dor (bo‘ya/q)
 bo‘yo/q/chi/lik
 (bo‘ya/q)
 bo‘z/a/xo‘r/lik

bo‘z/la/moq
 bo‘z/chi
 bo‘y/dor
 bo‘y/in/bog‘
 bo‘l/ak/la/moq
 bo‘l/im
 bo‘l/in/ma
 bo‘l/in/mas
 bo‘l/iq
 bo‘l/ma
 bo‘rt/ma
 bo‘sh/a/moq
 bo‘sh/lik
 bo‘sh/liq
 bo‘ya/ma
 bo‘g‘iz/la/moq
 bo‘g‘/im
 bo‘g‘/in
 bo‘g‘/iq
 bo‘g‘/ma
 bo‘hton/chi/lik

D

dabdab/a/li
 davlat/mand/lik
 davlat/chilik
 davo/la/moq
 davo/lov/chi
 davom/at
 davom/li/lik
 davom/chi
 davom/siz
 davo/siz
 davr/iy/lik
 davr/lash/tir/ish
 dadil/lan/moq
 dadil/lik
 dazmol/la/moq
 daydi/lik
 dala/li
 dala/chilik
 dalil/la/moq
 dalil/siz/lik
 dallol/chilik

damba/la/moq
dam/la/m
dam/la/moq
dam/li
danak/li
dangasa/lik
dang‘/illa/ma
daraja/lan/moq
daraja/li
darak/la/moq
darak/siz
darak/chi
darang/la/moq
daraxt/zor/lik
darxt/simon
darbadar/lik
darvish/lik
darvoza/bon
dardar/ak
dard/kash
dard/lash/moq
dard/li
dard/chil
darmon/siz/lik
darmon/siz/lan/moq
daromad/li
daromad/siz
darra/la/moq
dars/lik
dasta/k
dasta/la/moq
dasta/li
daxl/dor/lik
daxl/siz/lik
dasht/lik
da‘vo/gar/lik
dag‘al/lash/moq
dag‘al/lik
dag‘dag‘/a/li
dahshat/lan/moq
dahshat/li
devona/vor
devona/lik
devor/iy
dekan/lik

dengiz/chi/lik
dehqon/chilik
dehqon/chasiga
did/li
did/siz/lik
diyonat/li/lik
diyonat/siz/lik
dikong/la/moq
dik/illa/moq
dik/ir/la/moq
dik/kay/moq
dildir/a/moq
dilozor/lik
dim/iq/moq
dim/la/moq
dim/la/ma
dimog‘/dor/lik
din/dor/lik
din/iy
din/siz/lik
dir/ildoq
dir/illa/ma
diring/la/moq
dirk/illa/moq
diqqat/voz/lik
dovdir/a/moq
dod/la/moq
doim/iy
doira/simon
dona/dor
dona/la/moq
dong/dor
don/dor
donishmand/lik
dono/lik
donor/lik
dor/boz/lik
dori/vor
dori/la/moq
doston/chi/lik
doya/chilik
dog‘/la/moq
dohiy/lik
drama/lash/tir/moq
dud/la/moq

duduq/lan/moq
duk/ulla/moq
dukkak/li
duk/ur/la/moq
dumalo/q/la/moq
(dumala/q)
dum/li
dum/siz
dunyo/viy
dunyo/parast
duo/xon/lik
dup/urla/moq
durust/lan/moq
dushman/lash/moq
dushman/chilik
do‘zax/i
do‘kon/dor/lik
do‘mbir/a
do‘mbir/la/moq
do‘ng/lik
do‘ppi/do‘z/lik
do‘r/illa/moq
do‘st/larcha
do‘st/lash/moq
do‘st/lik
do‘q/irla/moq

E

ega/li
ega/lik
ega/l/la/moq
egar/la/moq
egar/soz/lik
egar/chi/lik
ega/siz/lik
egat/lab
egachi/lik
egiz/ak
eg/ik
eg/il/uvchan
egov/la/moq
egri/lik
ezgu/lik
ez/ma/lik

ez/ma/lan/moq
 ez/ma/chi/lik
 ez/g'ila/moq
 ek/in/li
 ek/in/zor
 ek/in/siz
 ekran/lash/tir/moq
 ekran/li
 ekskvator/chi
 eksperiment/chi
 ek/uv/chi
 ela/k/chi
 ela/m
 elektr/chi/lik
 elchi/lik
 eman/zor
 emgak/la/moq
 emgak/chi
 em/iz/ak
 em/iz/gich
 em/iz/ikli
 em/la/moq
 em/chi/lik
 en/la/moq
 en/li
 en/siz
 ep/la/moq
 ep/siz
 ep/chil/lik
 ergash/li
 ergash/uv/chi
 erin/chak/lik
 eri/t/kich
 eri/t/ma
 erkak/lik
 erkak/chilik
 erka/la/moq
 erka/lik
 erk/in
 erk/in/lik
 erk/li
 erk/lik
 erk/siz/lik
 er/li
 er/lik

ermak/la/moq
 eron/lik
 eron/i
 eron/chasiga
 eron/shunos/lik
 er/siz
 er/sira/moq
 erta/gi
 ertak/chi
 ertalab/ki
 erta/lik
 eru/v/chan
 es/ar/lik
 es/dalik
 eski/do'z/lik
 eski/lik
 eski/furush/lik
 es/la/moq
 es/la/t/ma
 eson/lik
 es/siz/lik
 es-hush/li
 etak/siz
 etik/do'z/lik
 etik/chi
 et/li
 et/siz
 echki/chi/lik
 eshik/chi
 eshkak/li
 esh/li
 esh/ma
 e'tibor/li/lik
 e'tibor/siz/lik
 e'tiroz/siz
 e'tiqod/li
 ehson/li
 ehtiyot/kor/lik
 ehtiyot/kor/ona
 ehtiyot/la/moq
 ehtiyot/lik
 ehtiyot/siz/lik
 ehtimol/lik
 ehtirom/li
 ehtiros/li

F

fazilat/li
 fazilat/siz
 fayz/li
 fayz/siz
 faylasuf/lik
 falaj/lan/moq
 falaj/lik
 falokat/li
 falokat/siz
 fann/iy (fan/iy)
 faol/iyat
 faol/iyat/siz/lik
 farah/lan/moq
 farah/li
 farah/mand
 farzand/li
 farzand/lik
 farzand/siz/lik
 farishta/li
 farishta/siz/lik
 farmon/dor/lik
 farovon/lik
 faromush/lik
 farosat/li
 farosat/siz/lik
 farog'at/li
 farog'at/siz
 farrosh/lik
 farq/la/moq
 farq/li
 farq/siz
 farg'ona/lik
 faxr/iy
 faxr/lan/moq
 faxr/li
 faqir/lash/moq
 fahm/la/moq
 fahm/li
 fahm/siz/lik
 fido/yi/lik
 fido/kor/lik
 fikr/an

fikr/dosh
 fikr/iy
 fikr/la/moq
 fikr/li
 fikr/lo/vchi
 (fikr/la/vchi)
 fikr/siz
 firib/gar/lik
 firuza/lan/moq
 fitna/chi/lik
 fojia/li
 fozil/lik
 foyda/lan/moq
 foyda/li
 foyda/siz/lik
 folbin/lik
 fol/chi
 folklor/chi/lik
 fors/iy
 ftor/li
 fuqaro/lik

G

gavda/lan/moq
 gajak/dor
 gajim/dor
 gazak/la/moq
 gazeta/chi/lik
 gazet/xon/lik
 gaz/lash/tir/moq
 gaz/li
 gaz/simon
 gala/lash/moq
 gangir/a/moq
 gandirak/la/moq
 ganch/la/moq
 gap/don/lik
 gap/ir/moq
 gap/lash/moq
 garang/si/moq
 gard/siz
 garov/lash/moq
 giyoh/vand
 gijgij/la/moq

gijing/la/moq
 gilam/do‘z/lik
 gina/xon/lik
 gips/la/moq
 gruppa/voz/lik
 gruppa/lash/moq
 guvala/k
 guv/ulla/moq
 guvoh/lik
 gul/don
 gul/dor
 guldur/a/k
 guldur/a/moq
 guldur/o/s
 gul/zor
 gul/la/moq
 gul/li
 gul/chi/lik
 gumbur/la/moq
 gumon/dor/lik
 gumon/sira/moq
 gumroh/lik
 gunoh/kor/lik
 gunoh/siz/lik
 gup/ulla/moq
 gur/ulla/moq
 gurs/illa/moq
 gurung/lash/moq
 guruh/boz/lik
 go‘dak/lik
 go‘zal/lash/moq
 go‘zal/lik
 go‘rkov/lik
 go‘sht/li
 go‘sht/siz
 go‘sht/xo‘r

H

havas/kor/lik
 havas/lan/moq
 havas/li
 havo/dor
 havo/yi/lan/moq
 havo/yi/lik

havo/lan/moq
 havo/li
 havo/siz/lik
 hadik/siz
 hadik/sira/moq
 had/siz
 hayo/li
 hayol/la/moq
 hayo/siz/lik
 hayot/iy/lik
 hayot/lik
 hayot/siz/lik
 hayot/chan/lik
 hajv/iy/ot
 hajv/iy/a
 hajv/chi/lik
 hajm/li
 hazil/kash/lik
 hazil/lash/moq
 hazil/omuz
 hazin/lik
 haybarakalla/chilik
 haybat/li
 haybat/siz
 hayvon/iy
 hayvon/lash/moq
 hayvon/lik
 hayvon/ot/chilik
 hayvon/simon
 haydo/v/chi/lik
 hayit/lik
 haykal/tarosh/lik
 haykal/chi/lik
 hayrat/lan/moq
 hayron/lik
 hayqir/iq
 hayhay/la/moq
 hakka/la/moq
 hali/gi
 halim/lik
 hallos/la/moq
 halovat/li
 halovat/siz/lik
 halokat/li
 halokat/siz

halol/la/moq
 halol/lik
 halp/illa/moq
 halp/ira/moq
 halqa/lan/moq
 halqa/simon
 ham/dam/lash/moq
 ham/dam/lik
 ham/dard/lik
 ham/jins/lik
 ham/jihat/lik
 hamiyat/li
 hamiyat/siz
 hamkor/lik
 hamma/bop
 hammol/lik
 hammom/chi/lik
 ham/nafas/lik
 ham/ovoz/lik
 ham/ohang/lik
 hamroh/lik
 hamsoya/lik
 ham/fikr/lik
 hangama/lash/moq
 hang/illa/moq
 hang/illo/q
 (hang/illa/q)
 hangr/a/moq
 harakat/lan/moq
 harakat/lan/tir/uvchi
 harakat/li
 harakat/siz/lik
 harakat/chan/lik
 harb/iy/lash/moq
 harb/iy/lik
 hardamxayol/lik
 haris/lik
 harom/xo‘r/lik
 harorat/li
 harorat/siz
 harf/iy
 harf/xo‘r/lik
 hasad/lan/moq
 hasad/li
 hasad/siz

hasad/chi/lik
 hasrat/lash/moq
 hasrat/li
 hassa/kash/lik
 hassos/lik
 hafsala/li
 hafsala/siz/lik
 hafta/lab
 hafta/lik
 haftafahm/lik
 hasham/at/li
 hasham/dor
 hasham/li
 hasharot/xo‘r
 hashar/chi/lik
 hayajon/lan/moq
 hayajon/li
 hayal/la/moq
 haq/go‘y/lik
 haqiqat/go‘y
 haqiqat/chi/lik
 haqiqiy/lik
 haq/li
 haqorat/la/moq
 haqorat/li
 haqorat/omiz
 haq/siz/lik
 haqqoniy/lik
 haqqoniy/at/siz/lik
 hemiri/lik
 hid/la/moq
 hid/li
 hid/siz
 hijja/la/moq
 hijr/iy
 hiyla/gar/lik
 hiyla/kor/lik
 hiyla/kor/ona
 hiyla/li
 hikmat/li
 hikmat/siz
 hikoya/navis/lik
 hikoya/chi/lik
 hilp/illa/moq
 hilp/ira/moq

hilp/iro/q (hilp/ira/q)
 himmat/li
 himmat/siz/lik
 himoya/siz/lik
 himoya/chi
 hing/illa/moq
 hind/shunos/lik
 hiring/la/moq
 hirs/li
 his/li
 hisob/don/lik
 hisob/la/moq
 hisob/li
 hisob/siz
 hisob/ot
 hisob/chi/lik
 hissa/dor/lik
 hissiy/ot/chi/lik
 hissiz/lik
 hiq/ildoq
 hiq/illa/moq
 hiq/ichoq
 hihi/la/moq
 hovliq/ma/choq
 hovliq/ma/lik
 hovuch/la/moq
 hojatbaror/lik
 hozirjavob/lik
 hozir/la/moq
 hozir/lik
 hoyhoy/la/moq
 hokim/iyat
 hokim/lik
 holva/furush
 holva/chi/lik
 hol/siz/lan/moq
 hol/siz/lik
 hol/sira/moq
 homiy/lik
 homila/dor/lik
 homila/li
 hordi/q
 hor/g‘in/lik
 hosil/dor/lik
 hosil/li

hosil/ot
 hosil/siz/lik
 hotam/lik
 hofiz/lik
 hoshiya/la/moq
 hoshiya/li
 hoho/la/moq
 huv/illa/moq
 huvhuv/la/moq
 hujayra/li
 hujjat/lash/tir/moq
 hujjat/li
 hujjat/siz
 hujum/kor/lik
 hujum/chi
 huzur/lan/moq
 hukm/dor/lik
 hukm/noma
 hukmron/lik
 hukum/at
 hunar/li
 hunar/mand/lik
 hunar/mand/chilik
 hunar/siz
 hurk/ak
 hurk/ovuch
 hur/lik
 hurmat/la/moq
 hurmat/li
 hurmat/siz/lik
 hurriyat/parvar/lik
 husnbuz/ar
 husn/dor
 husn/li
 husn/siz/lik
 hushyor/lan/moq
 hushyor/lik
 hushyor/xona
 hush/li
 hush/siz/lan/moq
 hush/siz/lik
 husht/ak/boz/lik
 husht/ak/chi
 huquq/iy
 huquq/li

huquq/siz/lik
 huquq/shunos/lik
 huqqa/boz/lik
 huhu/la/moq
 ho‘l/la/moq
 ho‘l/lik
 ho‘ng/illa/moq
 ho‘ngr/a/moq
 ho‘p/la/m

I

ibo/siz/lik
 ibo/li/lik
 ibrat/li
 ibtido/iy
 ivirsi/q
 ivi/t/ma
 idrok/li/lik
 idrok/siz/lik
 ijara/dor
 ijod/iy/ot
 ijod/kor/lik
 iz/la/moq
 iz/lo/vchi (iz/la/vchi)
 iz/siz
 izoh/la/moq
 izoh/li
 izoh/lo/vchi
 (izoh/la/vchi)
 iztirob/li
 iz/chil/lik
 iz/g‘i/moq
 ikki/lan/moq
 ikki/lamchi
 ikk/ov/i (ikki/ov/i)
 il/gak
 ilgari/gi
 ilgari/la/moq
 il/gich
 ildam/la/moq
 ildiz/la/moq
 ili/q
 ilin/j
 illat/siz/lik

ilm/iy
 ilm/li/lik
 il/moq
 il/moq/dor
 il/moq/li
 ilm/siz/lik
 iloj/siz/lik
 iltifot/li
 iltifot/siz/lik
 ilhom/lan/moq
 imzo/la/moq
 imzo/siz
 imkon/siz
 im/la/ma
 im/la/moq
 imon/li
 imon/siz
 imtiyoz/li
 imtiyoz/siz
 imtihon/siz
 ing/a/la/moq
 ingichka/lash/moq
 inda/mas
 injiq/lan/moq
 injiq/lik
 inobat/siz
 inoq/lash/moq
 inson/iy/at
 inson/parvar/lik
 insof/li
 insof/siz/lik
 intizom/li/lik
 intizom/siz/lik
 intil/uvchi
 intiq/lik
 inqilob/iy
 ipak/chi/lik
 ip/siz
 ir/illa/moq
 irim/chi
 iroda/li
 iroda/siz/lik
 iroq/i
 irs/iy/at
 irq/iy

irq/chilik
 isbot/la/moq
 isbot/siz
 isyon/kor/ona
 isyon/chi
 isiriq/don
 isiriq/chi
 isi/t/ma
 is/ka/moq
 is/ko/v/uch
 (is/ka/v/uch)
 is/lan/moq
 is/li/qi
 islohot/chi/lik
 ism/li
 ism/siz
 isrof/garchilik
 isrof/chilik
 issi/q/la/moq
 ista/k
 iste'dod/li
 iste'dod/siz
 istehzo/li
 istehzo/chi
 istilo/chi/lik
 istirohat/goh
 istisno/siz
 isqirt/lik
 itoat/kor
 itoat/li
 itoat/li/lik
 itoat/siz/lik
 ittifoq/dosh
 ittifoq/siz/lik
 iflos/lan/moq
 iflos/lik
 ifoda/la/moq
 ifoda/li
 iftixor/li
 iffat/li
 ixlos/mand/lik
 ixtiyor/iy/lik
 ixtiyor/siz/lik
 ixtilof/chi
 ixtisos/lik

itisos/lash/moq
 ixcham/lo/vchi
 (ixcham/la)
 ich/ik/moq
 icn/imlik
 ich/ki
 ich/kilik/boz/lik
 ishva/kor
 ishva/li
 ish/la/moq
 ish/lo/v (ish/la/v)
 ishon/uv/chan
 ishon/ch
 ishon/ch/li
 ishon/ch/siz
 ishon/ch/siz/lik
 ish/siz/lik
 ishtaha/li
 ishtaha/siz/lik
 ishtiyoq/li
 ishtiyoq/siz
 ishton/bog'
 ish/chan/lik
 ishqa/la/moq
 ishq/iy
 ishqor/li
 iqlim/shunos
 iqtidor/li
 iqtidor/siz
 iqtisod/iy/ot
 ig'vo/gar/lik
 ig'vo/gar/ona
 ihota/la/moq

J

jabduq/la/moq
 jabr/lan/moq
 jabr/li
 javob/an
 javob/gar
 jadal/lash/moq
 jadal/lik
 jadid/chilik
 jaz/illa/moq

jaz/illa/ma
 jaz/ira/ma
 jaz/li
 jazo/la/moq
 jazo/lo/vchi
 (jazo/la/vchi)
 jazo/siz
 jay/dar/i (joy/dor/i)
 jam/la/moq
 jam/lo/vchi
 (jam/la/vchi)
 jamoat/chi/lik
 jamg'ar/ma
 janjal/kash
 janjal/lash/moq
 janjal/siz
 janub/iy
 jarang/la/moq
 jarang/li
 jarang/siz
 jarang/siz/lan/moq
 jaraq/la/moq
 jar/lik
 jarohat/la/moq
 jar/chi/lik
 jasorat/li
 jasorat/siz/lik
 jasur/lik
 jafo/kash/lik
 jafo/kor
 jafo/li
 jafo/siz
 jag'illa/moq
 jahl/li
 jaholat/li
 jaholat/parast
 jahon/gir/lik
 jivir/la/moq
 jiddiy/lash/moq
 jiddiy/lik
 jizz/a
 jizz/a/ki/lik
 jizz/a/li
 jiz/illa/moq
 jiz/g'in/ak

jiyda/zor
 jik/illa/moq
 jilva/gar
 jilva/lan/moq
 jilva/li
 jildir/a/moq
 jild/la/moq
 jild/li
 jilov/dor
 jilov/la/moq
 jilo/lan/moq
 jilo/li
 jilpang/la/moq
 jimjima/dor
 jimjit/lik
 jim/illa/moq
 jim/irla/moq
 jinni/lik
 jinoyat/kor/lik
 jinoyat/kor/ona
 jinoyat/chi/lik
 jins/dosh
 jins/iy/at
 jips/lash/moq
 jips/lik
 jir/illa/moq
 jiring/la/moq
 jirkan/ch/li
 jihoz/la/moq
 jodu/gar/lik
 joziba/dor/lik
 joziba/li
 joziba/siz
 joy/la/moq
 joma/do‘z/lik
 jon/dor
 jon/lan/moq
 jon/siz/lan/moq
 josus/lik
 johil/lik
 juvoz/kash/lik
 jun/li
 jun/siz
 jur‘at/siz/lik
 jussa/li

juft/la/moq
 juft/lik
 jo‘sh/qin/lik
 jo‘ya/li
 jo‘ya/siz

K

kabob/paz/lik
 kavkaz/cha
 kavush/do‘z/lik
 kavsh/a/moq
 kayf/siz
 kalava/la/moq
 kallak/la/moq
 kaltak/la/moq
 kam/ay/moq
 kambag‘al/lash/moq
 kambag‘al/chilik
 kamgap/lik
 kam/i/moq
 kam/chilik
 kamqon/lik
 karaxt/lan/moq
 kars/illa/ma
 kars/illa/moq
 karch/la/moq
 kasal/lan/moq
 kasal/mand/lik
 katta/lash/moq
 katta/r/moq
 kafan/la/moq
 kafan/siz
 kashanda/lik
 kashta/do‘z/lik
 kashf/iy/ot/chi/lik
 kekir/dak
 kekir/ik
 keksa/y/moq
 keksa/lik
 kel/asi
 kel/gindi
 kel/gusi
 kel/im
 kel/in/lik

kel/in/chak/lik
 kel/ish/uv
 kema/soz/lik
 kem/ir/moq (kam/ir)
 kem/ir/uvchi
 kem/t/ik (kam/it)
 kem/shik
 keng/ay/moq
 keng/ash/ma
 keng/lik
 kerak/li
 kerak/siz/lik
 kesat/iq
 kes/ik
 kes/im
 kes/kin/lash/moq
 kes/kir
 kes/kich
 kes/ma
 ketmon/la/moq
 kecha/lab
 kech/ik/moq
 kech/inma
 kech/ir/im
 kech/ki
 kech/mish
 kibr/lan/moq
 kibr/siz
 kizak/la/moq
 kiy/im
 kiy/im/li
 kiy/im/lik
 kilo/lab
 kimyo/gar/lik
 kimsa/siz
 kino/lash/tir/ish
 kinoya/li
 kinoya/omuz
 kinoya/siz
 kira/kash/lik
 kir/im
 kir/lan/moq
 kisir/la/moq
 kissa/vur/lik
 kitob/furush/lik

kitob/xon/lik
 kitob/shunos/lik
 kifoya/lan/moq
 kichik/lash/moq
 kichik/lik
 kishan/la/moq
 kishi/siz
 kishkish/la/moq
 klavish/li
 kon/chi/lik
 kosib/chilik
 kuv/la/moq
 kuz/ak
 kuz/gi
 kuz/lik
 kuy/uk
 kuy/undi
 kuy/un/chak
 kuy/la/moq
 kuku/la/moq
 kukun/lan/moq
 kul/gi/li
 kul/dir/gich
 kul/don
 kul/imsira/moq
 kul/gich
 kulfat/li
 kumush/simon
 kungura/dor
 kungura/li
 kun/dosh/lik
 kura/k/la/moq
 kurash/chan/lik
 kurtak/la/moq
 kutub/xona/chi/lik
 kuch/ay/moq
 kuch/an/oq
 kuch/lan/moq
 kuch/li/lik
 kuch/siz/lik
 kuch/siz/lan/moq
 ko'z/gu
 ko'z/ik/moq
 ko'zko'z/la/moq
 ko'z/la/moq

ko'z/li
 ko'z/siz
 ko'ylak/bop
 ko'ylak/li
 ko'ylak/siz
 ko'ylak/chan
 ko'k/alam/zor/lash/tiris
 h
 ko'k/ar/moq
 ko'k/at/zor
 ko'k/lam/gi
 ko'krak/li
 ko'l/mak
 ko'mak/dosh
 ko'mak/lash/moq
 ko'm/ir
 ko'm/ma
 ko'ngil/li
 ko'ngil/siz
 ko'ngil/siz/lan/moq
 ko'ngil/chan/lik
 ko'n/ik/ma
 ko'n/ik/moq
 ko'n/chi/lik
 ko'p/ay/ish
 ko'p/ay/moq
 ko'p/ay/tir/u'v/chi
 ko'p/ay/tir/ish
 ko'p/ay/t/ma
 ko'p/ay/t/uvchi
 ko'p/ay/uvchi
 ko'p/ik/lan/moq
 ko'p/ik/li
 ko'p/lab
 ko'p/lik
 ko'p/chilik
 ko'p/chi/moq
 ko'r/gaz/ma/li
 ko'r/gilik
 ko'r/ik
 ko'r/im/li
 ko'r/im/siz
 ko'r/in/arli
 ko'r/in/ish/li
 ko'r/ish

ko'rk/am/lash/moq
 ko'rk/am/lik
 ko'rk/siz
 ko'r/lik
 ko'rpa/lik
 ko'r/sat/kich
 ko'r/sat/ma
 ko'r/sat/uv/chi
 ko'sak/la/moq
 ko'tar/gich
 ko'tar/inki/lik
 ko'tar/a
 ko'tar/ma/chi
 ko'ch/at
 ko'ch/at/zor
 ko'ch/im
 ko'ch/ir/gich
 ko'ch/ir/iq
 ko'ch/ir/ma/chi
 ko'ch/ir/uvchi
 ko'ch/ki
 ko'ch/ma
 ko'ch/manchi/lik
 ko'hna/do'z

L

labbay/go'y/lik
 lab/lash/gan
 lavlagi/chilik
 lavozi/siz
 laganbardor/lik
 layoqat/li
 layoqat/siz/lik
 lazzat/lan/moq
 lazzat/li
 lazzat/siz
 lalmi/kor/lik
 lang'illa/moq
 lapang/la/moq
 latin/lash/tirish
 lafz/siz/lik
 lashkarboshi/lik
 la'nat/lan/moq
 laq'illa/t/moq

lahja/shunos/lik
likang/la/moq
lik/ildoq
lik/illa/moq
lim/illa/moq
lip/illa/moq
liq/ildoq
liq/illa/moq
lov/illa/moq
loy/garchilik
loyiha/la/moq
loy/la/moq
loy/qa
loy/qa/lan/moq
lola/zor
lop/illa/moq
lof/chi/lik
loqayd/lik
lohas/lan/moq
lutf/kor/ona
lug‘at/chi/lik
lo‘k/illa/moq
lo‘li/lik
lo‘tti/boz/lik
lo‘q/illa/moq

M

mablag‘/siz/lik
mavj/lan/moq
mavjud/lik
mavjud/ot
mavsum/iy
madad/kor/lik
madaniy/lash/moq
madaniy/at/li/lik
madaniy/at/siz/lik
mador/siz/lan/moq
mador/siz/lik
madh/iya
majaq/la/moq
majbur/an
majbur/iy/at
majlis/boz/lik
majoz/iy

majol/siz/lan/moq
majol/siz/lik
majruh/lan/moq
majruh/lik
maza/li
maza/siz
mazlum/lik
mazmun/an
mazmun/dor/lik
